



AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISH TO'G'RISIDAGI XABAR

“TBC Bank” ATB aksiyadorlari diqqatiga!

“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv Kengashining 2024 yil 20 avgustdagi qaroriga asosan 2024 yil 11 sentyabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 16:30 da Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishini ma'lum qiladi.

KUN TARTIBI:

1. “TBC Bank” ATB Sanoq komissiyasining son va shaxsiy tarkibini cheklanmagan muddatga tasdiqlash.
2. “TBC Bank” ATB Ustaviga o'zgartirishlar kiritish va ushbu o'zgartirishlarni tasdiqlash.
3. “TBC Bank” ATBning 2024 yil 11 iyundagi R0911-8-sonli ilgari ro'yxatga olingan aksiyalar emissiyasiga o'zgartirishlar kiritish va ushbu o'zgartirishlarni tasdiqlash.

Manzil (pochta manzili): O'zbekiston Respublikasi, 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B uy

Elektron pochta manzili: contact@tbcbank.uz.

Yig'ilishni o'tkazish joyi: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B uy

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish sanasi, vaqti va joyi: 2024 yil 11 sentyabr, Toshkent vaqti bilan soat 15:30 dan 16:30 gacha, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B-uy.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish tartibi:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador-yuridik shaxs tomonidan o'z vakili orqali amalga oshiriladi.

Aksiyador istalgan vaqtda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida o'z vakilini almashtirishga haqli.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun aksiyador-yuridik shaxsning vakili o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjat va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ishonchnomani taqdim etadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibiga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari yordamida amalga oshiriladi.

Boshqa ma'lumotlar:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun aksiyadorlar reyestri 2024 yil 5 sentyabr holatiga ko'ra shakllantiriladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi materiallari bilan Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B uy manzili bo'yicha yoki quyidagi elektron pochtaga so'rov yuborish orqali tanishish mumkin: contact@tbcbank.uz.

Ma'lumot uchun telefon: (78) 777-27-27.